

## UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO‘LLARINI QURISH, QAYTA QURISH ISHLARIGA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MABLAG‘LARINI JALB QILISH

**Pardayev Fayzulla G‘affarovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
katta o‘qituvchisi  
Tel:90-326-09-44

### **Annotatsiya**

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llariga ish turlaridan qurish va qayta qurish ishlariga xalqaro moliya institutlaridan mablag‘lar jalb qilinishi bo‘yicha xorij tajribalari o‘rganilib, mamlakatimizda bu boradagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Investitsiya, umumiy foydalanish, avtomobil yo‘llari, qurish, qayta qurish, saqlash, joriy ta‘mir, xorijiy kredit, xususiy sektor. ijtimoiy himoya.

### **АННОТАЦИЯ**

Изучен зарубежный опыт привлечения средств от международных финансовых институтов для строительства и реконструкции автомобильных дорог общего пользования, а также разработаны научные и практические предложения по устранению существующих проблем и недостатков в этой сфере в нашей стране.

**Ключевые слова:** инвестиции, общественное пользование, автомобильные дороги, строительство, реконструкция, обслуживание, иностранный кредит, частный сектор, социальная защита.

### **Abstract**

Foreign experiences on the attraction of funds from international financial institutions for the construction and reconstruction of public highways have been studied, and scientific and practical proposals have been developed to eliminate existing problems and shortcomings in this regard in our country.

**Keywords:** Investment, public use, highways, construction, reconstruction, maintenance, foreign credit, private sector. social security.

### **KIRISH**

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarining aksariyat qismi o‘z xizmat muddatini o‘tab bo‘lganligi va ko‘pgina yo‘llar holatining qoniqarsizligi mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishda, yuklarni o‘z manziliga sifatli yetkazish hamda yo‘lovchilarni xavf-xatarsiz uzluksiz qatnovini ta‘minlash, shuningdek, mamlakatimiz hududidan o‘tadigan xalqaro tranzit yuklarni sifatli, xavfsiz qatnovini ta‘minlashga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan ajratilayotgan, ya‘ni Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish maqsadli jamg‘armasi mablag‘larining yetishmayotganligi avtomobil yo‘llari qurilishi va ta‘mirlanishiga qo‘shimcha mablag‘lar jalb qilish muammosini yuzaga keltirmoqda. Ushbu sharoitda moliyaviy resurslar tanqisligini bartaraf

etishning eng maqbul yo‘llaridan biri davlat, xususiy sektor hamda xalqaro moliya institutlari hamkorligini shakllantirishdan iborat.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish hamda yo‘lovchi va yuk tashish xizmatlarini sifatli amalga oshirishda avtomobil yo‘llarining o‘rni beqiyosdir. Mamlakatimiz o‘rta Osiyoning markazida joylashganligi sabab xalqaro tranzit yo‘llar orqali savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yar ekanmiz barcha sohalar kabi avtomobil yo‘llari qurilishini moliyalashtirishda ham davlat va xususiy sektor hamkorligini yo‘lga qo‘yish hamda investitsiyalarini jalb etish bo‘yicha izchil islohotlarni amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Mamlakatning iqtisodiy salohiyatini investitsiyasiz oshirib bo‘lmaydi, investitsiya natijasida sanoat korxonalari faol rivojlanadi, yalpi milliy mahsulot o‘sadi. Mamlakatning tashqi bozordagi faolligi ortib boradi. Asosiy iqtisodiy jarayonlarda investitsiyalar butun iqtisodiyot darajasida ham, tarmoqlar va alohida korxonalar darajasida ham muhim rol o‘ynaydi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki investitsion risk mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatiga bog‘liq. Investitsion jarayonning miqyosi va uning samaradorligi ko‘plab ijtimoiy muammolarni hal qilishni oldindan belgilab beradi, shu jumladan aholi turmush darajasini, ishsizlik va mehnat sharoitlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda asosiy rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda yo‘l sektoriga nisbatan investitsiyalarga qo‘yidagilar kiradi:

- Avtomobil yo‘llarining yangi qurilishi, ularni rekonstruksiya qilish, texnik qayta qurollantirish va mavjudlarini saqlash.
- Yo‘l infratuzilmasiga investitsiyalarning maqsadi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlashdan iborat.
- -Aholi ehtiyojlarini qondirishni ta‘minlaydigan avtomobil yo‘llari tarmog‘ini shakllantirish asosida tovarlar va xizmatlarning harakat erkinligi.
- -Korxonalar va davlatni eng tez, eng arzon va xavfsiz tarzda odamlar, tovarlar, ishlar va xizmatlarni kerakli joyga butun va sifatli holda yetkazib berish uchun harakatlanishi.

Birinchi navbatda yo‘l transport sohasida samaradorlikni ta‘minlanishi, avtomobil yo‘llarini ta‘mirlash uchun moliyalashtirishning ustuvorligi:

- Tugallanmagan qurilish ishlarini kamaytirish (yuqori tayyorgarlik obyektlari uchun moliyaviy resurslarni jamlash).
- Ekologik ko‘rsatkichlardan kelib chiqib, avtomobil yo‘llarini obodonlashtirish va rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirishni rejalashtirish, muayyan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda samaradorlikka erishish.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda davlat va biznes o‘rtasidagi hamkorlik masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Davlat va xususiy sektor hamkorligi (ing. Public private partnership) doirasida loyihalar davlat va xususiy kapitalning o‘zaro hamkorligining eng keng

tarqalgan va samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda davlat va xususiy sektor hamkorligi –davlat va biznes o‘rtasida avtomobil yo‘llarining keng tarmoqlarida hamda ilmiy innovatsion taraqqiyot sohasida ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan loyiha va dasturlarni amalga oshirish uchun tuziladigan institutsional va tashkiliy ittifoq deb ta’riflanadi<sup>1</sup>.

Davlat va xususiy sektor hamkorligini ifodalovchi bir qancha ta’riflar mavjud bo‘lib, Jahon banki tomonidan ta’rif berilishicha “Davlat va xususiy sektor hamkorligi- ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish hamda byudjetdan moliyalashtiriladigan mablag‘lar samaradorligini oshirish maqsadida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi kelishuvdir”<sup>2</sup>

Amerika Qo‘shma Shtatlarida Davlat va xususiy sektor hamkorligi tushunchasi bu-davlat va xususiy kompaniyalar o‘rtasida shartnoma bilan mustahkamlangan va belgilangan muddatlarda davlat mulkidan foydalanish, obyektlarni qurish va qayta qurish ishlarini amalga oshirish va ularni boshqarish bilan bog‘liq munosabatlar majmuasidir. Bunda mulkka egalik huquqi o‘zgarmaydi, hattoki davlat mulkini xususiy kompaniyaga berganda ham unga egalik huquqini o‘zida saqlab qoladi. Xususiy kompaniya esa belgilangan muddatda obyektни boshqarish, ekspluatatsiya, modernizatsiya qilish, murakkab loyihalarni va qurilishlarni amalga oshirish va shu muddatdagi ma’lum bir risklarni hamda jarima sanksiyalarini o‘z zimmasiga oladi<sup>3</sup>.

AQSH tadqiqotchisi B.Weissning ta’kidlashicha “Davlat va xususiy sektor hamkorligi- jamiyat farovonligini ta’minlashda moliyalashtirishning alternativ manbaidir. Davlat korxonalarini ekspluatatsiya qilishda, qurilishlarni amalga oshirishda va ularni moliyalashtirishda turli kelishuvlar orqali xususiy korxonalar ishtirokini ta’minlashdan iborat”<sup>4</sup>.

Ispaniyalik olim Franseska Medalla Vela ta’rifiga ko‘ra “infrastruktura loyihalarini moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor hamkorligini o‘rnatish davlatga xarajatlar uchun to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish, byudjet defitsitini oldini olish hamda ijtimoiy soha loyihalariga ajratilayotgan mablag‘lar hajmini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi”<sup>5</sup>.

Djeffri Delmon “transport infrastrukturasida davlat va xususiy sektor hamkorligi infrastruktura xizmatlarini yaxshilash yoki kengaytirish maqsadida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi shartnomaviy huquqiy munosabatlardir”<sup>6</sup> deb ta’rif beradi.

D.G.Lobok davlat va xususiy sektor hamkorligining davlat boshqaruvidagi muhim jihatlarini quyidagicha ta’riflaydi “davlat va xususiy sektor hamkorligi-davlat,

<sup>1</sup>Сулакшин С.С, Вилисов М.В, Хрусталёва Е.А.//Журнал “Недвижимость и инвестиции. Правовое регулирование” Номер 4 (25) Декабрь 2005г

<sup>2</sup> Delmon J. Private Sector Investment in Infrastructure: Project Finance, PPP Project and Risk. The World Bank and Kluwer Law International. 2009. P. 7.

<sup>3</sup> Report to Congress on Public-Private Partnerships. US Department of Transportation. 2004. P. 10.

<sup>4</sup> Public/Private Partnerships: Financing a Common Wealth/ed.by B.Weiss.Washington, 1985.P.67.

<sup>5</sup> Medall Vela F. Estrategias de internacionalizacion de las constructoras espanolas:Barcelona:Universitat Politecnica de Catalunya, 2006.

<sup>6</sup> Делмон Д. Государственно-частное партнерство в инфраструктуре: Практическое руководство для органов государственной власти:Астана 2010

xususiy sektor va foydalanuvchilar o'rtasida risk, majburiyatlar va olingan foydani oqilona taqsimlash asosida davlat ijtimoiy ahamiyatga ega infrastruktura loyihalarni xususiy sektorga taqdim etish mexanizmidir"<sup>1</sup>.

Davlat va biznes o'rtasidagi har qanday hamkorlikdagi loyihalar vaqtinchalik hisoblanib, o'zaro tomonlarning manfaatlaridan kelib chiqib belgilangan muddatlarda muayyan masalalarni hal qilishda, yechimini topish maqsadida tuziladi. Zamonaviy tizim iqtisodiy munosabatlarida davlat va xususiy sektor hamkorligini yo'lga qo'yishda davlat va xususiy sektor manfaatlari hisobga olinishi shart. Yana bir muhim shartlaridan biri davlat va xususiy sektor hamkorligida amalga oshirilayotgan loyihalarda davlat yetakchi bo'lishi va o'z vakolatlaridan foydalangan holda loyihaga rahbarlik qilishi shart.

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi yaqin munosabatlar huquqiy davlat va bozor tizimini boshqarish mohiyatini yuzaga keltiradi. Davlat va biznes subyektlari hamkorligidagi loyihalarni amalga oshirishda ularning o'zaro manfaatlaridagi qarama-qarshiliklardan qochishning imkoni yo'q. Chunki davlat o'z manfaatlari sifatida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yaxshilashni nazarda tutsa, xususiy sektorning manfaati esa aholiga sifatli xizmat ko'rsatish va foyda olishdan iborat.

Rivojlangan mamlakatlarda ham hamkorlik munosabatlari bo'yicha kuchli institutsional baza shakllangan bo'lishiga qaramasdan ayrim hollarda davlat va xususiy sektor hamkorligidagi loyihalarni amalga oshirishda xususiy manfaatlar yuqori qo'yilganligi kuzatiladi. Natijada davlat va xususiy sektor hamkorligidagi munosabatlar balansining buzilishi, loyiha raqobatbardoshligini kamayishiga va o'zaro ishonchning yo'qolishiga olib keladi. O'zaro hamkorlikdagi munosabatlarni rivojlantirishda davlat o'z funksiyalarini bajarishi maqsadida mulkiy huquqidan foydalangan holda erkin raqobat muhitini yaratishi, jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib iqtisodiyotni barcha subyektlari teng huquqliligini ta'minlash hamda ayrim resurslardan foydalanishni tartibga solishi kerak. Mamlakatdagi ishlab chiqarish va infrastrukturaning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining holati bilan uzviy bog'liq.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining jami uzunligi 42689 km.ni iborat. Eksploatatsiyasi (saqlash) va joriy ta'mirlash xarajatlari uchun 2023-yilda normativ me'yor bo'yicha 7 633 121,0 mln.so'mga ehtiyoj bo'lgan. Amalda davlat byudjetidan 1 695 434,0 mln.so'm ajratilgan.

IQN 02-2010, 03-2010 normativ hujjat bo'yicha 1 km umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'lini 2023-yilda saqlash xarajatlari me'yor bo'yicha 72,0 mln.so'mga ehtiyoj bo'lgan, amalda davlat byudjetidan 18,0 mln.so'm ajratilgan. Ya'ni 53,8 mln so'mga kam yoki me'yorga nisbatan 25 foiz mablag' ajratilgan.

Shuningdek VSN 41-2008, SHNK 27 ga asosan 1 km umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash xarajatlari me'yor bo'yicha 737,0 mln so'mga

---

<sup>1</sup> Лобок Д.Г. Использование зарубежного опыта государственно-частное партнерство в России: дис... канд.экон.наук:08.00.14.-М.,2011

ehtiyoj bo‘lgan, amalda davlat byudjetidan 82,0 mln so‘m ajratilgan, ya’ni 655,0 mln so‘mga kam yoki me’yorga nisbatan 11 % miqdorida mablag‘ ajratilgan.

Saqlash xarajatlari uchun me’yorga nisbatan mablag‘larning kam ajratilishi belgilangan ish normalari bajarilmay qolishiga hamda yo‘llarning ta’mirla-aro muddatlarini o‘tib ketishiga ta’sir qiladi. Natijada avtomobil yo‘llarining xizmat ko‘rsatish muddati qisqaradi, ekspluatatsiya (saqlash) xarajatlari uchun ajratilayotgan mablag‘larning samarasiz sarflanishiga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabr PQ-330-son “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qaroriga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish xarajatlariga ajratilayotgan mablag‘larni amaldagi me’yoriy hujjatlarda ko‘zda tutilgan talablarga nisbatan 2024-yilda 40 foizga, kelgusi 5 yilda 80 foizga yetkazish belgilangan<sup>1</sup>. Bu bilan avtomobil yo‘llarining ta’mirla-aro muddatini 2-2,5 barobarga yoki 4 yildan 10 yilgacha uzayishiga erishiladi.

## 2-jadval.

### Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida bajarilgan qurilish, ta’mirlash va saqlash ishlari bo‘yicha ma’lumot(mlrd.so‘m).

Ish turlari	2020-yil		2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil	
	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. So‘m	%
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Qurish va qayta qurish	1189,0	46,7	1462,0	36,3	1682,1	35,6	1138,1	23,5	1427,1	27,2
Ta’mir-lash, saqlash, tabiiy ofat	1359,0	53,3	2565,0	63,7	3041,0	64,4	3708,0	76,5	3811,2	72,8
<b>Jami</b>	<b>2548,0</b>	<b>100</b>	<b>4027,0</b>	<b>100</b>	<b>4723,1</b>	<b>100</b>	<b>4846,1</b>	<b>100</b>	<b>5238,3</b>	<b>100</b>

Manba: Avtomobil yo‘llar qo‘mitasining 2020, 2021, 2022, 2023 va 2024-yillar hisoboti<sup>2</sup>.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ekspluatatsiya (saqlash) ishlariga 2020 – 2024-yillar oralig‘ida davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Bu vaqt oralig‘ida ajratilgan mablag‘lar (5238,3-2548,0) = 2690,3 mlrd so‘mga yoki o‘shish surati 105,5 foizni tashkil etdi. Shuningdek ta’mirlash, saqlash va tabiiy ofatlarning oldini olish uchun ajratilgan mablag‘ (3811,2-1359,0)= 2452,2 mlrd so‘mga yoki 180,4 foizga o‘sgan. Lekin ta’mirlash va saqlash ishlariga ajratilgan mablag‘lar o‘sganligi bilan, ushbu ishlarni me’yor talablaridan ancha pastligicha qolmoqda.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llariga sarflanayotgan mablag‘larning asosiy qismi byudjet mablag‘lari hisobiga amalga oshirib kelinmoqda, amaldagi mavjud avtomobil yo‘llaridagi ekspluatatsiya (saqlash) ishlariga sarflanayotgan mablag‘lar belgilangan me’yorlardan ancha kam ajratilganligi, kelgusi besh yilda bu

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabr PQ-330-son “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori. Toshkent shahar.

<sup>2</sup> Avtomobil yo‘llar qo‘mitasining 2020, 2021, 2022, 2023 va 2024-yillar hisoboti

me'yorlarni byudjet mablag'lari hisobidan 80 foizga yetkazish, natijada yo'llarning ta'mirlararo muddatini uzaytirishlar inobatga olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabr PQ-330-son "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan yangidan boshlanadigan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, ko'priklar va sun'iy inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish obyektlarini moliyalashtirish asosan xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi belgilangan. Bunda, 2024-yildan boshlab har yili xalqaro moliya institutlaridan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, ko'priklar va sun'iy inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish obyektlariga 300 mln AQSH dollaridan kam bo'lmagan miqdorda kreditlar jalb qilib borish belgilandi<sup>1</sup>.

Bu bilan Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, OPEK xalqaro taraqqiyot jamg'armasi, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2024-yilda ushbu xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi umumiy qiymati 1,4 mlrd dollar, shundan kredit qiymati 1,1 mlrd dollar bo'lgan 7 ta loyiha doirasida 226,1 mln dollar (2023-yilga nisbatan o'sish sur'ati 131 foiz) o'zlashtirish belgilangan. 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida 202,2 mln dollar o'zlashtirilib, 272 km uzunlikdagi avtomobil yo'llari rekonstruksiya qilindi va ta'mirlandi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zaro hamkorlikdagi munosabatlarni rivojlantirishda davlat o'z funksiyalarini bajarishi maqsadida mulkiy huquqidan foydalangan holda erkin raqobat muhitini yaratishi, jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib iqtisodiyotni barcha subyektlari teng huquqliligini ta'minlash hamda resurslardan foydalanishni tartibga solishi kerak.

Davlat va investorlar hamkorligida amalga oshirilayotgan loyihalarda davlat yetakchi bo'lishi hamda o'z vakolatlaridan foydalangan holda loyihaga rahbarlik qilishi shart.

Mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishda, yuklarni o'z manziliga sifatli yetkazish hamda yo'lovchilarni xavf-xatarsiz uzluksiz qatnovini ta'minlash, shuningdek, mamlakatimiz hududidan o'tadigan xalqaro tranzit yuklarni sifatli, xavfsiz qatnovini ta'minlash uchun Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasi mablag'laridan samarali foydalanish hamda investitsion loyihalarning natijadorligiga jiddiy e'tibor qaratilishi shart.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-may O'RQ-837-son "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahriri" Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-6449033>
2. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 2-oktyabrdagi O'RQ-117-son "Avtomobil yo'llari to'g'risida" gi Qonuni <https://lex.uz/docs/1254490>
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabr O'RQ – 598- son

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. Toshkent shahar 2023-yil 10-oktyabr PQ-330-son.

“Investitsiyalar va Investitsiya faoliyati to‘g‘risida” Qonuni Toshkent shahri  
<https://lex.uz/docs/-4664142>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabr PQ-330-son  
“Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.  
Toshkent shahar <https://lex.uz/docs/6634311>

5. Sulakshin S.S, Vilisov M.V, Xrustalyova Ye.A.//Jurnal “Nedvijimost i  
investitsii. Pravovoye regulirovaniye” Nomer 4 (25) Dekabr 2005g

6. Delmon J. Private Sector Investment in Infrastructure: Project Finance, PPP  
Project and Risk. The World Bank and Kluwer Law International. 2009. P. 7.

7. Report to Congress on Public-Private Partnerships. US Department of  
Transportation. 2004. P. 10. Delmon J. Private Sector Investment in Infrastructure:  
Project Finance, PPP Project and Risk. The World Bank and Kluwer Law International.  
2009. P. 7.

8. Public/Private Partnerships: Financing a Common Wealth/ed.by  
B.Weiss.Washington, 1985.P.67.

9. Medall Vela F. Estrategias de internacionalizacion de las constructoras  
espanolas: Barcelona: Universitat Politecnica de Catalunya, 2006.

10. Делмон Д. Государственно-частное партнерство в инфраструктуре:  
Практическое руководство для органов государственной власти: Астана 2010

11. Лобок Д.Г. Использование зарубежного опыта государственно-частное  
партнерство в России: дис... канд.экон.наук:08.00.14.-М.,2011

12. Burkhanov, A.U., Tursunov, B.O., Usmonov, B. and Mamayusupova,  
S.U. (2024), "Assessment of Financial Security of Joint-Stock Companies: The Case  
of Uzbekistan", Eshov, M.P., Abdurakhmanova, G.K., Burkhanov,  
A.U., Abdusalomova, N.B. and Ergasheva, S.T. (Ed.) *Development of International  
Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to  
IFRS (Advanced Series in Management, Vol. 33B)*, Emerald Publishing Limited,  
Leeds, pp. 205-213. <https://doi.org/10.1108/S1877-63612024000033B026>

13. Burkhanov, A.U., Kurbonbekova, M.T., Usmonov, B. and Nizomiddinov,  
J.Z. (2024), "Assessment of the Financial Sustainability of Enterprises: The Case of  
Uzbekistan", Eshov, M.P., Abdurakhmanova, G.K., Burkhanov,  
A.U., Abdusalomova, N.B. and Ergasheva, S.T. (Ed.) *Development of International  
Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to  
IFRS (Advanced Series in Management, Vol. 33B)*, Emerald Publishing Limited,  
Leeds, pp. 215-223. <https://doi.org/10.1108/S1877-63612024000033B027>



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, fevral, 2-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**